

1-topshiriq. Test savollarni ishleng.

1. "Hizbut tahrir al-islomiya" tashkiloti qachon tashkil topgan?

- A) 1953-yilda
- B) 1946 yilda
- V) 1950 yilda
- G) 1954 yilda

2. Vahhobiylik nechanchi asrda vujudga kelgan?

- V) XVIII asrda
- B) XIX asrda
- V) XVIII asr yarmida
- G) XVII asr oxirida

3. Missionerlik nima?

- A) Bir dinga e'tiqod qiluvchi xalqlar orasida boshqa bir dinni targ'ib qilish.
- B) To'g'ridan - to'g'ri biron bir dinga ishongan fuqaroni o'z dinidan voz kechishga va o'zga dinni qabul qilishga majbur qilish.
- V) O'z xohishi bilan boshqa diniy e'tiqodga o'tib ketish
- G) Ma'lum yovuz maqsadlar yo'lida, kuch ishlatish, odamlarni jismoniy yo'q qilish g'oyasiga asoslangan zo'ravonlik usuli

4. Prozelitizm nima?

- A) Ijtimoiy siyosiy xarakterdagi muammolarni xalq etishda o'ta keskin chora-tadbirlar, fikr va qarashlarni yoqlovchi nazariya va amaliyot.
- B) To'g'ridan - to'g'ri biron bir dinga ishongan fuqaroni o'z dinidan voz kechishga va o'zga dinni qabul qilishga majbur qilish.
fanatik
- V) Bir dinga e'tiqod qiluvchi xalqlar orasida boshqa bir dinni targ'ib qilish.
- G) to'g'ri javob yo'q

5. "Hizbut tahrir" ning hozirgi kundagi rahbari Abdulqadim Zallum qaysi davlatda tug'ilgan?

- A) Iroq
- B) Isroil
- V) Falastin
- G) Saudiya Arabiston

6. Diniy bag'rikenglik nima?

- A) Diniy amallarda berilgan imtiyoz
- B) Barcha din va dindorlarning qonun oldida tengligi, dindorlar va g'ayridinlar orasidagi erkin munosabat.
- V) E'tiqod va vijdon erkinligi
- G) Diniy muttassiblik

7. “Vijdon erkinligi to’g’risida”gi qonunning 5- moddasiga binoan:

- A) Bir konfessiyadan boshqasiga o’tish ta’qiqlanadi.
- B) Prozelitizm va missionerlik man etiladi.
- V) Din va diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan.
- G) Voyaga yetmaganlarni dinga da’vat qilish mumkin emas.

8. Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan, hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi. Mazkur modda konstitutsiyaning nechanchi moddasida berilgan?

- A) 61 modda
- B) 62 modda
- V) 60 modda
- G) 64 modda

9. Respublikamiz Konstitutsiyasining nechanchi moddasida vijdon erkinligi to’g’risida berilgan?

- A) 30 modda
- B) 31 modda
- V) 32 modda
- G) 36 modda

10. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to’g’risida”gi qonun qachon qabul qilindi?

- A) 1997 yil 29 avgust
- B) 1993 yil aprel
- V) 1998 yil 1 may
- G) 1999 yil 1 aprel

2-topshiriq. Tayanch so’zlarni izohlang:

Diniy jamoa	Diniy tashkilot	Mafkura	Missionerlik
Diniy guruh	Konfessiya	Fanatizm	Prozelitizm
Fundamentalizm	Mutaassiblik	G’ayridin	Terrorizm
Vahhobiylik	Ekstremizm	Fanatizm	Xalifalik